

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ISMAILOV NURULLA TUYCHIBAYEVICH

HALQALI YIGIRUV MASHINASIDA CHIRMOVIQSIMON IP OLISH
TEXNOLOGIYASI

05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Namangan-2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical science**

Ismailov Nurilla Tuychibaevich

Halqali yigiruv mashinasida chirmoviqsimon ip olish texnologiyasi..... 3

Исмаилов Нурилла Туйчибаевич

Технология получения стержневой пряжи на кольцепрядильной машине 23

Ismailov Nurilla Tuychibayevich

Technology for obtaining core spun yarn on a ring-spinning machine..... 43

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works 46

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ISMAILOV NURULLA TUYCHIBAYEVICH

**HALQALI YIGIRUV MASHINASIDA CHIRMOVIQSIMON IP OLISH
TEXNOLOGIYASI**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.2.PhD/1653 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobojanov Husanxon Toxirovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «24» iyun soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy-7. Tel.: (69), 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: nei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3- bino, 2-qavat, 313 -xona).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 537-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «14» iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil «24» iyundagi № 116 raqamli reestr bayonnomasi).



Handwritten signature

R.M. Muradov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor

Handwritten signature

J.A. Qayumov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Handwritten signature

K.M. Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik sanoatining asosiy homashyolaridan biri paxta tolasi bo‘lib, texnologik jarayonlarda uning sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish va undan sifatli ip mahsulotlarini tayyorlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Indeksmundi sayti ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda dunyo bo‘yicha jami 25,7 mln. tonna paxta tolasi yetishtirilgan¹. Hozirgi kunda aholi sonining o‘sib borishi hamda ularning tabiiy toladan tayyorlangan mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojining ortishi paxta tolasiga bo‘lgan talabni ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu borada ip yigirishda foydalaniladigan texnika va texnologiyalarni yangi avlodlarini ishlab chiqaruvchi “Rieter” (Shvesariya), “Truchler” (Germaniya), “Savio”, “Marzoli”(Italiya) kabi yetakchi firmalarni o‘rni beqiyos bo‘lib, yigiruv korxonasi jihozlarini ishlab chiqarishda homashyoning sifat ko‘rsatkichlariga zarar yetkazmagan holda takomillashtirish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda.

Jahonda to‘qimachilik mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, yigirilgan ip assortimentlarini kengaytirish, kimyoviy tolalarning inson salomatligiga salbiy ta‘sirini kamaytirish, to‘qimachilikda nanotexnologiyalardan foydalanish, aqlli to‘qimachilik mahsulotlari yaratish, tola va ip xossalarini mato xossalariga ta‘sirini o‘rganish, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jihozlari konstruksiyalarini takomillashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, yigirish mashinalarining samaradorligini oshirish, ishchi qismlarni sozlashda optimal parametrlarni tanlash, yigirishning yangi usullarini yaratish, turli tolalar aralashmasidan bir xil xossali ip olish, iplarning mato sifatiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, turli kompyuter dasturlari yordamida pishitilgan ip tarkibida yakka iplarning joylashuvini, tola hamda yakka iplarning pishitilgan ip sifatiga ta‘sirini o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda raqobatbardosh va yuqori sifatli ip mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, mavjud yigiruv korxonalari jihozlarini modernizatsiya qilish hamda ularni avtomatizatsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi² ning 22-maqсадida ko‘zda tutilgan ya‘ni “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, jumladan, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish” bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, yigirilgan ip assortimentlarini kengaytirish, korxonalarni rekonstruksiya qilish, yigirishning yangi usullarini ishlab chiqarishga joriy qilish muhim hisoblanadi.

¹<https://www.indexmundi.com/agriculture/?commodity=cotton&graph=production>

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi no‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2022 yil 21 yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PF-53-son farmoni, 2020 yil 5 maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5989-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II «Energetika, energiyava resurs tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yigirilgan ip ishlab chiqarishda mahsulot assortimentlarini kengaytirish, yangi yigirish usullarini yaratish, texnologik parametrlarni mahsulot sifatiga ta‘sirini tadqiq etish, zamonaviy dasturlar yordamida ip mahsulotlari turli assortimentlarini ishlab chiqish, chirmoviqsimon ip yigirish muammolarini tadqiq qilish borasida bir qator xorijiy olimlar soha rivojiga ulkan xissa qo‘shganlar, jumladan S. Kvolek, Z. Stepanovich, S. Bogovich, A. Kaper, A. Rudolf, P. Reaners, Beti Rogina Kar, N. Tovey, S. Yuvensik, E.V. Melenchuk, V.A. Rodionov, K.A. Grigorevich, A.G. Sevost’yanov, O.N. Moroz, T.I. Polyakova, V. M. Djanpaizov, Ye.V. Denisova, M.V. Nazarovava boshqalar.

Halqali yigirish va pishitish mashinalarida chirmoviqsimon ip, Siro ip va boshqa turdagi pishirilgan ip yigirish texnologiyasini ishlab chiqish va tadqiq qilish bo‘yicha O‘zbekistonning taniqli olimlari bir qator tadqiqotlar olib borgan. Bulardan, Q.Jumaniyazov, G.A.To‘xtaovunova, H.T.Bobojonov, X.A.Xayriddinov, M.P.Pirniyazova, X.X.Parpiev, X.D.Parpiev, X.Xaydarov, V.Isaqulov, N.N.Ro‘ziboev, M.V.To‘laganovalar olib borgan tadqiqotlari natijasida pishirilgan ip turlarini kengaytirish, ularning mato sifatiga ta‘sirini tadqiq qilish hamda yangi pishitish usullarini yaratish masalalarini hal qilishda salmoqli natijalarga erishganlar.

Shu bilan birga, halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip yigirishning yangi usullarini yaratish, buram parametrlarini ip sifatiga ta‘siri, yakka iplarning o‘zaro ta‘siri va ularning mahsulot mustahkamligiga bog‘liqligi, iplarni bir-biriga qo‘shishda optimal qiyalik burchagini aniqlash muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlarining rejasiga muvofiq «Halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olishning yangi usulini yaratish va asoslash» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavjud chirmoviqsimon ip olish usullari va texnologiyalarini tadqiq qilish hamda halqali ip yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olishning texnologiyasini takomillashtirish;

chirmoviqsimon ip olishning yangi usulini nazariy asoslash, chirmoviqsimon ip olish jarayonida yigirish mashinasining ishchi parametrlarini optimallashtirish;

halqali ip yigirish mashinasida tavsiya etilayotgan texnologiya asosida gigroskopiklik xususiyati yuqori bo'lgan ip namunalari ishlab chiqarish;

taklif etilgan usul asosida olingan ip namunalarining fizik-mexanik xossalarini tekshirish va tahlil qilish;

chirmoviqsimon ip olish texnologiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida halqali yigirish mashinasi, ip xossalarini aniqlashda foydalaniladigan laboratoriya jihozlari, namuna iplarining fizik xossalari olingan.

Tadqiqotning predmetini yigiruv korxonasiidagi chirmoviqsimon iplar, halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olish usuli, ularning xossalarini aniqlash metodlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanikaning aksiomalari, analitik geometriyaning vektorlar, parallelogram va uchburchaklar usuli, kosinuslar teoremasi, tadqiqot natijalarini olish imkonini beruvchi statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

halqali ip yigirish mashinasida shakllanayotgan ipga yakka ipni ip yo'naltirgich va chiqaruvchi tsilindr oralig'ida qo'shish orqali mavjud usullardan farqli bo'lgan chirmoviqsimon ip olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ilk bor bir xil tarkibli chirmoviqsimon ip uchun mustahkamlikni hisoblash formulasi ko'p tarkibli pishirilgan ipning mustahkamligini hisoblash formulasini qo'llash orqali ishlab chiqilgan;

halqali yigiruv mashinasida chiqaruvchi cho'zuvchi juftlikdan chiqayotgan tolali tutamchaga yakka ipni qo'shish orqali gigroskopiklik xususiyati va mahsuldorligi yuqori bo'lgan chirmoviqsimon ip olish imkoniyati emperik tadqiqot metodi qo'llash orqali aniqlangan;

nazariy mexanikaning asosiy aksiomasi asosida halqali ip yigirish mashinasida yangi usuldagi chirmoviqsimon ip olish uchun yakka iplarning qo'shilish burchagi o'rtacha geometrik qiymatni aniqlash metodi yordamida aniqlangan hamda halqali ip yigirish mashinasidagi urchuqning aylanish tezligi va ip taranglovchi moslama og'irligining maqbul qiymati matematik modellashtirish yordamida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mavjud chirmoviqsimon ip olish usullari va texnologiyalari tadqiq qilindi hamda halqali ip yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan;

dastlab nazariy mexanikaning asosiy aksiomalaridan foydalanib yakka iplarni optimal qo'shilish burchagi hamda ma'lum uzunlikka mos keluvchi buramlar soni

aniqlangan. Unga ko'ra yakka iplar 45° burchak orqali bir-biriga qo'shilganda eng optimal sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lishi aniqlangan;

tadqiqot natijasida olingan qiymatlarni Styudent va Fisher mezonlari yordamida adekvatligi tekshirilgan. Kiruvchi va chiquvchi parametrlar qiymatlarini kodlashtirish orqali hisob ishlari bajarilgan hamda ularning optimal qiymatlari 9500 *ayl/min* urchuq tezligida va 8 *grammli* taranglovchi moslama o'rnatilganda erishilgan;

yangi usulda tajribalar davomida olingan iplarini sifat ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Natijada olingan iplarning gigroskopiklik xossalari yuqori bo'lishi erishilgan;

turli urchuq tezligida va turli buramda olingan chirmoviqsimon ipning uzilishdagi uzayish ko'rsatkichi tahlil qilingan. Ushbu ko'rsatkichning eng yuqori qiymatini *Uster statistik 2018 50%* dagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, 57,14% yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlangan;

taklif etilayotgan usulda chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish uchun mashinaning optimal ishchi parametrlari aniqlangan;

taklif etilayotgan usulda ishlab chiqarilgan chirmoviqsimon ipning gigroskopiklik xossasi an'anaviy pnevmomexanik usulda olingan pishirilgan ipning ko'rsatkichidan 11,06% ga, an'anaviy halqali usulga nisbatan 9,84% ga yuqori bo'lgani, kapillyarligi 14% ga yuqori bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalarning ishonchliligi dissertatsiya yakunida keltirilgan umumiy xulosalar, nazariy va tajribaviy tadqiqot natijalariningo'zaro muvofiqligi, sinov va joriy qilishdagi ijobiy natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatishundan iboratki, halqali ip yigirish mashinasida gigroskopiklik va kapillyarlik xususiyatlari yuqori bo'lgan chirmoviqsimon ip olishning yangi usulini ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqot natijalarini asoslanganligibilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati halqali ip yigirish mashinasida shakllanayotgan ipga urchuq va chiqaruvchi silindr oralig'ida yakka ipni qo'shish orqali yangi usulda chirmoviqsimon ip olinganligi, ushbu usulda chirmoviqsimon ip olishning yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan amaliyotgajoriy qilish uchun tavsiya qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Halqali ip yigirish mashinasida yangi usulda chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olishni yangi texnologiyasi "Namangan to'qimachi" MChJ korxonasiining 1 yigiruv fabrikasida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasining 2023 yil "7" apreldagi №03/25-713 - son ma'lumotnomasi). Natijada ipning gigroskopiklik ko'rsatkichi 11 % ga oshirishga erishilgan, bir yilda 805200 kvт·soat elektr energiya tejalgan hamda yiliga 382 470 000 so'm iqtisodiy samaraga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta halqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika va 9 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish texnika va texnologiyasining hozirgi holati**" deb nomlangan birinchi bobida to'qimachilik sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayonda dunyo bo'yicha eng ko'p foydalaniladigan tabiiy tolalardan biri paxta tolasi hisoblanishi, paxta tolasi yetishtirish bo'yicha xorijiy davlatlarning o'rni, halqali yigirish mashinasini ishlab chiqarish bo'yicha dunyodaetakchi firmalar, bugungi kunda to'qimachilik texnologiyasi bo'yicha olimlar va to'qimachilik korxonalarini mutaxassislarining oldida bir qator qilinishi lozim bo'lgan ishlar va yechilishi zarur bo'lgan muammolar haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Shuningdek, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda yigirilgan ip ishlab chiqarish korxonalarining o'rni beqiyosligi, hozirgi kunda trikotaj, to'quvchilik va to'qima-attorlik mahsulotlarini ishlabchiqarish uchun asosan pishitilgan iplarni ishlatilishi, pishitilgan iplar ikki qavatli yoki undan ko'p qavatli, turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi, chirmoviqsimon ip esa ulardan farqli ravishda qo'shilayotgan yakka iplarning tarangligi bilan farq qilishi hisobiga bir ipni atrofida ikkinchi ip chirmashib birikkan holda shakllanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalava iplarning pishitishdagi mavjud kamchiliklarni oldini olish yoki ularning salbiy ta'sirlarini ma'lum bir usul orqali kamaytirish murakkab jarayondir.

Chirmoviqsimon ip olish jarayoni (1-rasmga qarang)da tola oqimlari bilan birgalikda yakka ipning chiziqli zichligi bo'yicha notekislik kamayadi, pishiqligi ortadi, egilishdagi bikrligi pasayadi, ishqalanishga qarshiligi kuchayadi va ip yuzasida tukdorlik hosil bo'lishi kamayadi.

Chirmoviqsimon kalava iplarga bo'lgan talab to'qimachilik sohasida yuqori bo'lganligi, kalava ip tarkibidagi tolalardan to'g'ri saralanma tanlash yo'li bilan yuqori sifatga ega bo'lgan iplarni yaratish lozimligi, tabiiy paxta tolasiga kimyoviy va tabiiy (ipak, jun) tolalarni qo'shib chirmoviqsimon iplar ishlab chiqarishda ularning afzalliklaridan foydalanish, u yoki bu tolalarning kamchiliklaridan qochish imkoni mavjudligi, turli yigirish usullarida tabiiy yoki bu tolalarning

kamchiliklaridan qochish imkoni mavjudligi, turli yigirish usullarida tabiiy yoki kimyoviy tolalar aralashmasidan chirmoviqsimon iplarni hosil qilishda yangi texnologik jarayon bo‘lib bir qator izlanishlar olib borganligi haqida ma’lumotlar berilgan.



1-rasm. Chirmoviqsimon ip olish jarayoni: a) yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olishning texnologik chizmasi; b) o‘zak ip bilan tolalarni birlashishi.

Halqali yigirish mashinasida turli buramdagi chirmoviqsimon iplarni hosil qilish jarayonining fizik mohiyatini aniqlash uchun impulsli suratga olish va yuqori tezlikda plyonka olish usullaridan foydalanilgan. Olingan ma’lumotlarning tahlili yigirish-pishitishning alohida zonalaridagi jarayonlarning borishida xarakterli xususiyatlarni ochib berish imkonini bergan.

Pnevmomexanik yigirish mashinasining ip hosil qiluvchi yuzasiga havo tolali massa yo‘nalishida tolalarga ajratiladi va yo‘naltiriladi. Halqali yigiruv mashinasining tez aylanuvchi o‘ram sirtiga duch kelib asosan tasodifiy joylashadi. Tolalar yigirish maydoni markazi teshigiga ketma-ketlikda bir-biriga qiyalik ostida yo‘naltirilib, o‘zak ipi bilan tolalar o‘ralib chirmoviqsimon ipni hosil qiladi. Tolali qoplama hosil qilishning asosiy jarayoni cho‘zuvchi asbobning ko‘ndalang sathi bilan o‘zak ipning qo‘shilish chegarasida sodir bo‘ladi.

Mavjud chirmoviqsimon ip ishlab chiqarishning usullari xilma-xilligidan qat’iy nazar sanoatda barchasi qo‘llanilmaydi. Usullarning ko‘pchiligi, yuqori unumdorligiga qaramay, bir qator muammolar mavjud bo‘lib, birinchi navbatda, yangi mashinalar, asbob-uskunalar sotib olish uchun muhim xarajatlar va uni saqlash uchun maxsus tayyorgarlik, qisqa xizmat muddati va elektr energiyasini kam miqdorda iste’mol qilish zarurligini etiborga olish zarurdir.

Dissertatsiyaning “**Chirmoviqsimon ip olish texnologiyasining nazariy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ip yigirish jarayonida paxta tolasidan olinadigan pilik juda nozik bo‘lib, unga 10-12 kN kuch ta’sir ettirilsa uziladi. Urchuq aylanganda markazdan qochma kuch paydo bo‘lib, pilikni uzilishiga sabab bo‘ladi. Shu bois pilikni pishitish-o‘rash, jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Markazdan qochma kuch quyidagi formula orqali aniqlanagan.

$$F_q = m \cdot \omega^2 \cdot v \quad (1)$$

bu yerda,

F_q - markazdan qochma kuch;

m - qanotlari massasi;

ω - burchak tezligi;

v - aylanish tezligi.

Chirmoviqsimon ipga berilgan buramlar sonini aniqlash formulasi quyidagicha:

$$K = \frac{n_u}{v_1} \left[\frac{\text{бурам}}{\text{метр}} \right] \quad (2)$$

bu yerda,

K - pishitilganlik, bur/metr;


n_u - urchuqning aylanishlar soni, min^{-1} ;

v_1 - silindrning chiziqli tezligi.

Pilikka ikki xil yo'nalishda (Z yoki S) buram beriladi (2-rasmga qarang).


Z - o'ng pishitilganlik, soat strelkasi bo'ylab yo'nalgan harakat;

S - chap pishitilganlik, soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalgan harakat.



2-rasm. Ipni pishitish yo'nalishlari: a) o'ng buram; b) chap buram; v) buram qadami, d-mahsulot diametri, mm; g) buram yoyilmasi, mm; bunda, h-bitta buram balandligi, mm; α -pishitish burchagi.

Halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olish uchun mashinaning ta'minlash romiga yakka ip namunalari o'rnatilishi hamda ularni bir me'yorda ta'minlash uchun qo'shimcha taranglovchi moslama va ip o'tkazgichlardan o'tkazilib shakllantirildi (3-rasmga qarang).




3-rasm. Halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish usulining texnologik sxemasi: 1-yakka ip o'ralgan bobina; 2-taranglovchi moslama; 3-ip o'tkazgich; 4-pilik; 5-cho'zish mexanizmi.

Mashinada yakka ip buramiga teskari buram berilishi natijasida uning buramlari ma'lum miqdorda yoziladi, cho'zish asbobidan kelayotgan tolali tutamcha bilan o'tkazgichda ko'shilishi natijasida chirmoviqsimon ipga aylanadi. Bunda tolali tutamcha o'zak, yakka ip esa chirmoviq sifatida shakllanadi.

Olingan yakka ip namunalarining buramlar soniga qarab, yangi hosil bo'layotgan mahsulot (chirmoviqsimon ip) ning burami tanlanadi. Bunda, urchuqni geometrik silindr shaklda deb tasavvur qilinsa, hisoblash qoidasiga ko'ra aniq qiymatlarga erishiladi.

Tadqiqot davomida bir yoki bir necha qatlamlarda chirmoviqsimon ip olishning nazariy sxemasini o'rganilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Chirmoviqsimon ip geometriyasi: a) buralish kuchi ostida tolaniq deformatsiyasi; b) ipning silindrik ko'rinishi.

Buram mustahkamligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{\text{byp}} = \frac{\eta \cdot T \cdot c^2}{\theta} \quad (3)$$

bu yerda,

η - maxsus uzilish moduli;

T - ipning chiziqli zichligi;

θ - tola zichligi;

c - yakka ipning buram qatigligi.

Buram soni uchun 2π radian siljish bo'ladi, ya'ni $\frac{Q}{2\pi}$.


Demak, bu uzunlik birligi $\tau = \frac{Q}{2 \cdot \pi \cdot l}$ ekanligidan ko'rinib turibdiki, umumiy buram momenti yakka ip buram momentidan kattaroq.

O'zak ipning diametri d_c va tolalarning diametri d_b qiyalik burchagi bilan quyidagi shartni qanoatlantirishi kerak (5-rasmga qarang):.

$$n \geq \frac{\pi(d_c + d_a) \cdot \cos \alpha}{d_c} \quad (4)$$

Ko'ndalang kesimdagi birlashuvchi tolalar soni buralish burchagiga bog'liq. α uchun $\alpha=0$; $n=n_{\text{max}}$ holatda $\alpha \rightarrow \frac{\pi}{2}$, $n \rightarrow 0$ ikkala holatda ham muvofiqdir.

Chirmoviqsimon ipning mustahkamligiga maqbul qiymatlarda burilishning ta'sirini murakkab xususiyat sifatida qarash mumkin. Chirmoviqsimonipning kuchiga mos keluvchi egri chiziq noldan emas, balki ma'lum bir qiymatdan boshlanadi.



5-rasm. O‘zak ipni bir yoki bir nechta qatlam bilan qoplashning nazariy sxemasi:
a) ko‘ndalang kesim bo‘yicha; b) burchak qiyaligi bo‘yicha.


Chirmoviqsimon ipning reaktiv buram momenti M_b ni va egish M_e momenti qiymatlari unga berilayotgan buram burchagi β ning qiymatiga bog‘liq bo‘ladi, chunki siljish va egilish deformatsiyalari ham shu burchak qiymatlariga uzviy bog‘liqdir. Ipga beriladigan buram ikki qismdan tashkil topadi, birinchisi K_b -siljish deformatsiyasini sodir etsa, ikkinchisi K_e -egilish deformatsiyasini vujudga keltiradi.

Chirmoviqsimon ip tarkibidagi yakka ip va tolali tutamcha orasidagi bog‘liqlikni me‘yorlashtirish uchun yigirish mashinasining texnologik parametrlarini tanlashga asoslangan tadqiqotlar o‘tkazildi. Bunda, asosiy muammo (ZxS) buramlar berilganda, yakka ip va michkani bir-biriga qo‘shilish jarayonida ip uzilishlarini kamaytirish va yigirish mashinasida urchuq tezligini oshirilishi hisobiga mashina unumdorligini oshirishga qaratilgan. Demak, yakka ip va michkani bir tekis buram bog‘lanishini ko‘rib o‘tamiz. Bu yerda, bog‘lanish va uning reaksiya kuchlari odatda yakka ip va tolalar oqimi muvozanatlashgan holati hamda harakatini hisobiga vujudga keladi. Chirmoviqsimon ipga berilgan buram ta‘sirini ekvivalent buram kuchi bilan almashtirish mumkin, buni bog‘lanish reaksiyasi deb yuritiladi.

Statikaning asosiy aksiomasiga ko‘ra har qanday bog‘lanishdagi ipni erkin deb qarash uchun bog‘lanishlarni uning reaksiya kuchlari bilan almashtirish yetarlidir. Bu aksioma bog‘lanishdan qutulish prinsipi deyiladi. Aksiomaga ko‘ra, jismga ta‘sir etayotgan buramlar sistemasi qatoriga bog‘lanish reaksiya buramlarini ham qo‘shish kerak. Odatda ular noma‘lum bo‘lib, berilgan buramlar sistemasining muvozanat shartlaridan topiladi. Bog‘lanishdan qutulish uchun bog‘lanish reaksiya buramining yo‘nalishini aniqlash ahamiyatlidir.

Bog‘lanish reaksiya buramining yo‘nalishini aniqlashda quyidagidan foydalanish zarur. Bog‘lanishdagi iplarning harakati qaysi tomonga cheklangan bo‘lsa, reaksiya burami shu yo‘nalishga teskari yo‘nalgan bo‘ladi. Bog‘lanishning turlari va bog‘lanish reaksiyalari ishqalanish mavjud bo‘lmagan bir necha bog‘lanishlarda reaksiyalarning yo‘nalishlari qanday bo‘lishini ko‘ramiz.

Halqali yigirish mashinasi cho‘zish asbobi ezuvchi valiklaridanchiqayotgan tutamcha tolali oqimdan iborat bo‘lib ular pishitish uchburchagini tashkil qiladi. Pishitish uchburchagidagi tolalar oqiminitarangligi va ularni harakat yunalishini, boshqarish uchun ularga ta‘sir ezuvchi kuchlarni o‘rganish zarur.



6-rasm. Bog‘lanish va uning reaksiyalari aksiomalari: a) parallelogramm; b) parallelogramm yarmiga teng uchburchak; s) ip shakllanishida hosil bo‘luvchi uchburchak.

6-rasmdagi harakat tuzilishini geometrik shakl ko‘rinishida tasavvur qilinsa, harakat yo‘nalishidagi kesmaga yoki xarakatdagi buramga vektor deyiladi. Tajribada yakka ipga cho‘zuvchi uskunadan chiquvchi tolali tutamcha (michka)ni birlashtirish harakatidan hamda parallelogramm va uchburchak qoidasiga asosan, biror A nuqtaga qo‘yilgan ikki xarakatdagi buram kuchning teng ta‘sir etuvchisi ularga qurilgan parallelogramm diagonaliga yoki parallelogrammning yarmini tashkil etuvchi uchburchagining AA_1 tomoniga teng (6-b rasm). U holda R vektor ikki F_1 va F_2 vektorlarning geometrik yig‘indisiga teng, ya‘ni $R = F_1 + F_2$.


Ta‘sir ko‘rsatuvchi R ni F_1 va F_2 kuchlarning yo‘nalishlari bilan tashkil qilgan burchaklari F_1 va F_2 larni hamda uning 2-a,b,c rasmlar miqdorini sinuslar va kosinuslar teoremlaridan foydalanib uchburchak AA_1A_2 dan aniqlanadi. Teng ta‘sir ko‘rsatuvchi R ni F_1 va F_2 kuchlarning yo‘nalishlari bilan tashkil qilgan burchaklari F_1 va F_2 larni hamda uning 6-a,b,c rasm miqdorini sinuslar va kosinuslar teoremlaridan foydalanib uchburchak AA_1A_2 dan aniqlanadi.

$$\frac{F_1}{\sin \varphi_2} = \frac{F_2}{\sin \varphi_1} = \frac{R}{\sin \alpha} \quad (5)$$

$$R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 - 2F_1F_2 \cdot \cos \alpha} \quad (6)$$

Bu yerda, α - F_1 va F_2 kuchlarning yo‘nalishlari orasidagi burchak.

Aytaylik, A nuqtada kesishuvchi F_1, F_2, \dots, F_n kuchlarning sistemasi berilgan. Birinchi ikki aksiomaning natijasidan foydalanib, bu kuchlar sistemasini A nuqtaga qo‘yilgan kuchlar sistemasi bilan almashtiramiz.



7-rasm. A nuqtada qo‘yilgan kuchlar sistemasi: a) A nuqtada kesishuvchi F_1, F_2, \dots, F_n kuchlarning sistemasi; b) kuch ko‘pburchagida shtrixlangan vektor yordamida bo‘lingan uchburchaklar.


Endi quyidagini qurishni bajaramiz F_1 kuchining oxiri A_1 dan F_2 kuch vektoriga teng bo'lgan A_1A_2 vektorni o'tkazamiz, uning oxiridan vektor $A_2A_3=F_3$, uning oxiridan vektor $A_3A_n=F_n$ va hokazo. Hamma kuchlarni qo'ygandan so'ng, birinchi kuchning boshi A dan oxirgi kuchning oxiri A_n ga AA_n kuch vektorini o'tkazamiz. $A_1, A_2...A_n$ ko'pburchakni quramiz, bu kuch ko'pburchagi deb yuritiladi.

Kuch ko'pburchagida shtrixlangan vektor yordamida bo'lingan uchburchaklarni quramiz (7-b rasmga qarang). Kuch uchburchagini qurish usuliga asosan F_1 va F_2 kuchlarning teng ta'sir etuvchisi R , AA_n vektor vositasida tasvirlanadi, ya'ni $R=F_1+F_2$. AA_3 vektor, AA_1 va F_3 kuchlarining teng ta'sir etuvchisi R_2 ni tasvirlaydi, binobarin, uchta F_1, F_2 va F_3 kuchlarining teng ta'sir etuvchisidir. Ya'ni, $R_2=F_1+F_2+F_3$ va hokazo. Hamma uchburchaklarni ko'rib chiqib quyidagi xulosaga kelamiz. Kuch ko'pburchagini yopuvchi AA_n tomoni n ta kuchning teng ta'sir etuvchisini tasvirlaydi, ya'ni:

$$R = \vec{F}_1 + \vec{F}_2 + \vec{F}_3 + \dots + \vec{F}_n = \sum \vec{F}_k \quad (7)$$

Kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir ko'rsatuvchisi, shu kuchlar ustiga qurilgan kuch ko'pburchagi yopuvchi tomonining geometrik holatida aniqlanadi.

Chirmoviqsimon ipga berilgan buramlar soni hisobiga yakka ip va cho'zuvchi uskunadan chiquvchi tolali tutamchalar bilan tutashuv joyi A_1 nuqta texnologik jarayon boshlangach tortish kuchi natijasida A nuqtaga ko'chadi. Geometrik shakilga asoslanib K_2 tolali tutamchalar va K_1 yakka ipning orasida ma'lum bir burchak hosil bo'ladi. Bu burchakni qanday burchak ekanligini aniqlash kerak bo'ladi.



8-rasm. Texnologik jarayonda yakka ip va tolali tutamchalar orasidagi burchakni geometrik shakli: a) yakka ip va tolali tutamchani qo'shilishi; b) uchburchak shaklga to'ldirib olingan; s) harakatdagi burchak o'zgarish uchburchagi.

Bu yerda, yakka ipga berilgan kuch $F_1=F_2=F$ va $l_1=l$ ipning ma'lum bir uzunliklari.

Y o'qiga nisbatan simmetriyani hisobga olgan holda, bizga quyidagilar mavjud:

$$\sum Y = l_2 - 2l_1 \cos \alpha = 0 \quad (8)$$

bu yerda $l_2 = 2l_1 \cos \alpha$; $\frac{l_2}{2l_1} = \cos \alpha$.

Deformatsiyalangan strukturaning sxemasiga asoslanib, deformatsiyalarning muvofiqligi uchun shartni tuzish mumkin: $\Delta l_2 = \frac{\Delta l_1}{\cos \alpha}$.

Aniqlangan natijalarga ko‘ra ip va tolali tutamchanning qo‘shilish burchagi qiymatlarini quyidagi jadvalda (1-jadvalga qarang) ko‘rish mumkin.

1-jadval

Yakka ip va tolali tutamchanning qo‘shilish burchagi qiymatlari

| Urchuq aylanish tezligi, ayl/min | Chirmoviqsimon ipga berilgan buram soni, bur/metr | Aniqlangan burchak α |
|----------------------------------|---|-----------------------------|
| 8500 | 600 | 30 ⁰ |
| 9500 | 700 | 45 ⁰ |
| 10500 | 800 | 60 ⁰ |

Xuddi shuningdek, olib borilgan tadqiqotda buramlar soni bo‘yicha kosinuslar teoremasidan foydalanib, qaysi urchuq aylanish tezligi va ipga berilgan buramlar sonida, yakka ip va tolali tutamchalar bog‘lanishi orasidagi burchak, ip ishlab chiqarishning eng optimal variant bo‘lishini aniqlash mumkin.

- ❖ K_1 -yakka ipga berilgan buram;
- ❖ K_2 -chirmoviqsimon ipga berilgan buram;
- ❖ K_3 -o‘zak ipining buramiga qarama-qarshi buram bo‘shashi.

Bu yerda, $K_1 > K_3$, $K_2 > K_3$, shartlar o‘rinli, zarur va yetarlidir.

$$(K_1 - K_3)^2 + K_2^2 - 2 \cdot K_2 \cdot (K_1 - K_3) \cdot \cos \alpha = k^2 \quad (9)$$

K_3 -buram qiymati o‘zak ipga berilgan buram qiymatining 35-55% igacha qiymatni qabul qilishi kerak, shundagina (ZxS) buram bo‘yicha chirmoviqsimon ipga berilgan buram natijasida chirmoviqsimon ip olish mumkin bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Halqali yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olish texnologiyasini takomillashtirish natijasida olingan qiymatlar tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida yigirilgan chirmoviqsimon ip namunalari quyidagi (9-rasmga qarang) usulda olingan. Ushbu tayyorlangan iplarni halqali yigirish mashinasi cho‘zish zonasini tashqarisidan xuddi shu yo‘g‘onlikdagi yigirilayotgan ipga qo‘shish orqali 84,3 teks li ($Ne 7$) iplar yigirib olingan. Bunda paxta tolasining Andijon 35, Buxoro 102 seleksion navlaridan foydalanib, 4-I 40%, 4-II 30%, 4-III 30% tipli saralanma tuzilgan.



9-rasm. Chirmoviqsimon ip olishning yangi usuli.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, urchuq aylanish tezligi 9500 *ayl/min* va buramlar soni 700 *bur/metr* holatida olingan chirmoviqsimon ip namunalarning barcha sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha optimal natijaga erishilgan.

An'anaviy pnevmomexanik va halqali usulda yigirilgan, tukli to'qima olish maqsadida pishitish mashinalarida pishitilgan iplarning hamda tajribada olingan chirmoviqsimon ipning pishiqligi, uzilishdagi uzayishi, ingichka va yog'on joylar soni, nepslar miqdori ko'rsatkichlari Uster statistik 2018 50% dagi ko'rsatkichlari bilan, iplarning kapillyarlik va gigroskopiklik xossalari esa O`z.DSt 3312.2018.(GOST 3816-81 (ISO 811-81)) bilan solishtirilgan.


Taqqoslash natijalari quyida (2-jadvalga qarang) keltirilgan.

2-jadval

Natijalarni taqqoslash jadvali

| Sifat ko'rsatkichlari | Tajribada olingan ip | Pishitilgan ip | Pishitilgan ip (Halqali yigirish ipi) | Uster statistik 2018 50% li ko'rsatkichlari (Halqali yigirish) |
|--|----------------------|----------------|---------------------------------------|--|
| Chirmoviqsimon ipning chiziqli zichligi, teks | 81,7 | 81,9 | 82,2 | 84,3 |
| Ipning nisbiy pishiqligi, sN/teks | 11,8 | 11,01 | 12,9 | 15,1 |
| Uzilishdagi uzayishi, mm | 10,11 | 13,6 | 10,8 | 6,96 |
| Ingichka joylar soni, -50% | 5 | 7 | 5 | 2 |
| Yo'g'on joylar soni, +50% | 70 | 66 | 68 | 50 |
| Nepslar soni, +200% | 15 | 15,7 | 16 | 26 |
| Chiziqli zichlik bo'yicha variatsiya koeffitsienti, CVm% | 16,28 | 15,1 | 14,7 | 11,9 |
| Chirmoviqsimon ipning kapillyarlikligi, sm/min | 0,14 | 0,12 | 0,13 | - |
| Chirmoviqsimon ipning gigroskopikligi, % | 84,28 | 72,065 | 73,054 | 75,7 |
| Namlikni yo'qotish (V_1), % | 125,32 | 121,45 | 122,57 | - |


(Jadval natijalarini quyida diagrammalar ko'rinishida tasvirlangan 11-12-13 rasmlarga qarang).



- Tajribada olingan chirmoviqsimon ip
- Pnevmomexanik usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip
- Halqali usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip

11-rasm. Iplarning kapillyarligi, sm/min.


11-rasmdagi qiymatlarga ko'ra shuni xulosa qilish mumkinki, tajribada olingan chirmoviqsimon ipning kapillyarlik ko'rsatkichi An'anaviy pnevmomexanik usulda olingan ipning ko'rsatkichidan 14,28% ga, An'anaviy halqali usulda olingan ipning ko'rsatkichidan esa 10,71% ga yuqori bo'lgan.



- Tajribada olingan chirmoviqsimon ip
- Pnevmomexanik usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip
- Halqali usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip
- O'zDSt 3312.2018 standart ko'rsatkichi

12-rasm. Iplarning gigroskopikligi, %.

12-rasmdagi grafik qiymatlariga ko'ra, tajribada olingan chirmoviqsimon ipning gigroskopiklik ko'rsatkichi An'anaviy pnevmomexanik usulda olingan ipning ko'rsatkichidan 11,06% ga, An'anaviy halqali usulda olingan ipning ko'rsatkichidan 9,84% ga, O'zDSt 3312.2018 (ISO 811-81) standart ko'rsatkichidan esa 6,57% ga yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.




- Tajribada olingan chirmoviqsimon ip
- Pnevnomexanik usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip
- Halqali usulda yigirilgan yakka iplardan olingan pishitilgan ip

13-rasm. Iplarning namlikni yo‘qotishi, V_1 %.

13-rasmdagi diagramma qiymatlaridan ko‘rinib turibdiki, tajribada olingan chirmoviqsimon ipning namlikni yo‘qotish ko‘rsatkichi An’anaviy pnevmomexanik usulda olingan ipning ko‘rsatkichidan 3,08% ga, An’anaviy halqali usulda olingan ipning ko‘rsatkichidan 2,19% ga yuqori bo‘lgan.

Yuqoridagi diagrammalarda ko‘rsatilgan ip namunalarining sifat ko‘rsatkichlari tukli to‘qimalar xossalarini bevosita yaxshilanishiga olib keladi. Tavsiya etilayotgan usulda chirmoviqsimon iplar yigirilsa hamda ularni tuk tanda sifatida sochiqbop matolar ishlab chiqarishda qo‘llanilsa, olinadigan sochiq mahsulotlari namlikni o‘ziga yaxshi oladigan va tez qaytaradigan bo‘ladi. Boisi, chirmoviqsimon ipning kapillyarlik, gigroskopiklik va namlikni yo‘qotish xossalari standart va An’anaviy usullarda olingan iplarning aynan shu xossalaridan ancha yuqori bo‘lgan.

Dissertatsiyaning “**Chirmoviqsimon ipning kapillyarlik xossalarini tahlili va halqali yigirish mashinasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobidayigirilgan chirmoviqsimon iplarning kapillyarlik xossasi boshqa turdagi pishitilgan iplarning ushbu xossasidan ancha yuqori bo‘lganligi, buni asosiy sabablardan biri sifatida tolalar orasidagi bo‘shliqlarning oshirilganligini keltirilgan. Quyida tajribada olingan chirmoviqsimon ip va korxonada olingan an’anaviy usulda pishitilgan iplarning ko‘rinishi tasvirlangan (14-rasmga qarang).



a)

b)

14-rasm. Iplarning mikroskopik tuzilishi: a) tajribada olingan chirmoviqsimon ip; b) korxonada an’anaviy usulda olingan pishitilgan ip.

Chirmoviqsimon ip kapillyarligi O`zDSt 3312.2018. standart yo`riqnomasi bo`yicha aniqlangan. Tajriba ishlarini o`tkazish uchun tadqiqot natijasida olingan chirmoviqsimon ip va korxonada olingan ipdan uzunligi 300 mm bo`lgan namunalar olingan.

Tajriba natijalari jamlanib quyida keltirilgan (4.1-jadvalga qarang).

4.1-jadval

Sinov uchun olingan iplarning kapillyarlik ko`rsatkichlari jadvali

| Urchuq aylanish tezligi, ayl/min | Buramlar soni, bur/metr | Tajribada olingan ipning kapillyarligi, sm | Korxonada ishlab chiqarilgan ipning kapillyarligi, sm |
|----------------------------------|-------------------------|--|---|
| 8500 | 600 | 9,5 | 9,2 |
| | 700 | 9,1 | 8,9 |
| | 800 | 8,6 | 8,5 |
| 9500 | 600 | 8,6 | 8,4 |
| | 700 | 8,3 | 7,3 |
| | 800 | 7,5 | 6,7 |
| 10500 | 600 | 7,3 | 6,9 |
| | 700 | 6,8 | 6,6 |
| | 800 | 5,9 | 5,7 |

4.1-jadval qiymatlariga asoslangan holda, iplarning suyuqlikni shimish tezliklari hisoblandi.

Ip yigirishda sarflangan elektr energiyasi orqali iqtisodiy samaradorlikni aniqlashning tahliliy hisobi

Halqali yigirish mashinasida ip ishlab chiqarish uchun ma`lum bir sarf-xarajatlar, masalan elektr energiyasining is`temoli uchun xarajatlar mavjud.

An`anaviy usulda chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish uchun elektr energiyasi sarfi oshib ketadi. Chunki bu usulda pishitilgan ip olish uchun dastlab yakka ip tayyorlanib, so`ngra ikkita ipni pishitish mashinasida birgalikda pishitiladi. Bu esa o`z-o`zidan elektr energiyasini ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

Tavsiya etilayotgan halqali yigirish mashinasida emas, balki odatdagi pishitish usulida chirmoviqsimon ip oladigan bo`lsak, biz texnologik jarayonlarga pishitish mashinasini ham kiritishimiz kerak bo`ladi. Bunda chirmoviqsimon iplar ikki bosqichda olinadi. 1-bosqichda yakka iplar halqali yigirish mashinasida yigiriladi. 2-bosqichda esa qo`shburam pishitish mashinasida jarayon davom ettirilib, chirmoviqsimon iplar olinadi. Ko`rinib turibdiki, 2 bosqichli usulda pishitish mashinasiga harakat berish uchun ham elektr energiyasi sarflanadi.

Qo`shburam beruvchi pishitish mashinasi (VTS-10) ning bir soatlik elektr energiya is`temoli 122 *kv/soat* ni tashkil etmoqda. Demak bir kunlik ish me`yori 22 soat deb belgilansa, u holda yillik istemol sarfi quyidagicha bo`ladi (4.5-jadvalga qarang).

Qo'shburam beruvchi pishitish mashinasining elektr energiya is'temoli

| Vaqt birligi | Vaqt birligida is'temol, kv/soat | Elektr energiyasi is'temoli so'mda xarajatlari, |
|---------------------------------|----------------------------------|---|
| 1 soat uchun | 122 | 57 950 |
| Bir kunlik 22 soat uchun | 2684 | 1 274 900 |
| Bir oy 25 kunlik uchun | 67100 | 31 872 500 |
| Bir yillik 300 kun uchun | 805200 | 382 470 000 |

Demak, tavsiya qilayotgan usulda faqat bir bosqichda chirmoviqsimon ip olinishini inobatga oladigan bo'lsak, 4.6-jadvaldagi hisoblangan qo'shburam beruvchi pishitish mashinasining elektr energiya is'temoli butunlay tejab qolinadi. Unga asosan bir kunlik ish kunida 2684 kv/soat, bir yil ya'ni 300 kun ish birligida **805 200kv/soat** yoki **382 470 000 so'mlik** elektr energiyasi tejab qolinadi.

Albatta, ishlab chiqarishda kam xarajatlarda yuqori chiziqli zichlikdagi iplarga bo'lgan talab va extiyojni xisobga olgan holda ushbu tavsiya qilingan usuldan foydalanib chirmoviqsimon ip olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Chirmoviqsimon ip ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan texnika va texnologiyalarni tuzilishi, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni natijalari hamda adabiyotlar tahlili o'rganilgan.

2. Halqali ip yigirish mashinasida chirmoviqsimon ip olish imkoniyati nazariy aniqlangan. Dastlab nazariy mexanikaning asosiy aksiomalaridan foydalanib yakka iplarni optimal qo'shilish burchagi hamda ma'lum uzunlikka mos keluvchi buramlar soni aniqlangan. Unga ko'ra yakka iplar 45° burchak orqali bir-biriga qo'shilganda eng optimal sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lishi isbotlangan.

3. Chirmoviqsimon ip tarkibida yakka iplarni joylashuvi va buralish momentlari tadqiq qilingan. Yakka iplarni mustahkamligini inobatga olgan holda, chirmoviqsimon ip uchun mustahkamlik formulasi ishlab chiqilgan, bunda yakka iplar qo'shilishi natijasida uzunlikni ma'lum darajada qisqarishini hisobga oluvchi koeffitsient kiritilgan.

4. Tadqiqot natijasida olingan qiymatlarni Styudent va Fisher mezonlari yordamida adekvatligi tekshirilgan. Kiruvchi va chiquvchi parametrlar qiymatlarini kodlashtirish orqali hisob ishlari bajarilgan. Optimal qiymatlarga 9500 ayl/min urchuq tezligida va 8 grammlari taranglovchi moslama o'rnatilganda erishilgan.

5. Yangi usulda tajribalar davomida olingan iplarini sifat ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Natijada olingan iplarning gigroskopiklik xossalari yuqori bo'lishi erishilgan.

6. Turli urchuq tezligida va turli buramda olingan chirmoviqsimon ipning uzilishdagi uzayish ko'rsatkichi tahlil qilingan. Ushbu ko'rsatkichning eng yuqori

qiymatini *Uster statistik 2018 50%* dagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, 57,14% yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlangan.

7. Chirmoviqsimon ipning ingichka joylar soni 9500 *ayl/min* urchuq tezligida va 700 *bur/metr* dagi qiymatni *uster statistik 2018 30 %* dagi ko'rsatkichlari bilan solishtirilganda, ushbu ko'rsatkich 20% ga yaxshilangan.

8. Tajribada olingan chirmoviqsimon ipning kapillyarlik ko'rsatkichi an'anaviy pnevmomexanik usulda olingan ipning ko'rsatkichidan 14,28% ga, an'anaviy halqali usulda olingan pishirilgan ipdan 10,71% ga yuqori bo'lgan, gigroskopiklik ko'rsatkichi mos ravishda 11,06% ga va 9,84% ga yuqori bo'lganligini, namlikni yo'qotish ko'rsatkichi esa 3,08% ga va 2,19% ga yuqori bo'lganligini aniqlangan.

9. Natijalardan ko'rinmoqdaki, urchuq aylanish tezligi 9500 *ayl/min*, ipga berilgan buram 700 *bur/metr* bo'lganda tajribada olingan chirmoviqsimon ipning kapillyarligi korxonada an'anaviy usulda olingan iplarning kapillyarligidan 0,18 *sm/daq* ga tez ya'ni, 12,5% ga yuqori bo'lgani aniqlangan.

10. Tadqiqot natijalariga ko'ra, urchuq aylanish tezligi 9500 *ayl/min* va buramlar soni 700 *bur/metr* holatida olingan chirmoviqsimon ip namunalarning barcha sifat ko'rsatkichlari bo'yicha optimal natijaga erishilgan.

11. Optimal variant uchun, Ya'ni urchuq aylanish tezligi 8500 *ayl/min*, buramlar soni 700 va 800*bur/metr* bo'lganda amaliy unumdorlik qiymatlari quyidagiga teng bo'ladi: yakka ip uchun, $A_n=28,5 \text{ kg/soat}$; $A_a= A_n \cdot M.F.K.=25,7 \text{ kg/soat}$; chirmoviqsimon ip uchun, $A_n=74,4 \text{ kg/soat}$; $A_a= A_n \cdot M.F.K.=67,14 \text{ kg/soat}$. Umumiy hisobda yakka ip ishlab chiqarishga nisbatan, chirmoviqsimon ip ishlab chiqarishning amaliy unumdorligi 38,3% ga yuqori bo'lgan.

12. Demak, biz tavsiya qilayotgan usulda faqat bir bosqichda chirmoviqsimon ip olinishini inobatga oladigan bo'lsak, qo'shburam beruvchi pishitish mashinasining elektr energiya is'temoli butunlay tejab qolinadi. Ungga asosan bir kunlik ish kunida 2684 *kv/soat*, bir yil ya'ni 300 kun ish birligida **805 200kv/soat** yoki **382 470 000 so'mlik** elektr energiyasi tejab qolinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ (PhD).03/30.12.2019.Т.66.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ИСМАИЛОВ НУРУЛЛЫ ТУЙЧИБАЕВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ СТЕРЖНЕВОЙ ПРЯЖИ НА
КОЛЬЦЕПРЯДИЛЬНОЙ МАШИНЕ**

**05.06.02-технология текстильных материалов и первичная
обработке сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИ НАУКАМИ**

Наманган-2023

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за №В2020.2PhD/1653.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (ўзбекском, русском и английском (резюме)) размещен в веб-сайте Наманганского инженерно-технологического института (www.nammti.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Бобожанов Хусанхон Тохирович
доктор технических наук, доцент

Официальные противники:

Жуманиязов Кадам Жуманиязович
доктор технических наук, профессор

Эркинов Зокиржон Эркинбой угли
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ферганский политехнический институт

Защита диссертации состоится “24” июнь 2023 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Т.66.01 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу 160115, г.Наманган ул.Касансайская-7, Административное здание Наманганского инженерно-технологического института, 3-корпус, 2-этаж, 313-аудитория, Тел.: (69)225-10-07, факс: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz,

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического институте (зарегистрирована за № 537). Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская- 7. Тел.: (69) 225-10-07.

Автореферат диссертации разослан “14” июня 2023 года.
(реестр протокола рассылки № 116 от “14” июня 2023 года).



Р.М. Муродов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Ж.А. Каюмов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

К.М. Холиков

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Одним из основных сырьевых материалов текстильной промышленности в мире является хлопковое волокно, и особое значение придается сохранению его качественных показателей в технологических процессах и изготовлению из него качественных ниточных изделий. По данным сайта Indeksmundi, в 2022 году в мире будет в общей сложности 25,7 млн человек. Тонн хлопка-волокна было выращено. В настоящее время рост населения и увеличение его потребности в изделиях из натурального волокна приводит к увеличению спроса на хлопковое волокно. В этом отношении несравнимую роль играют ведущие компании, такие как «Rieter» (Швейцария), «Truchler» (Германия), «Savio», «Marzoli» (Италия), которые производят новые поколения оборудования и технологий, применяемых в прядении пряжи. При производстве оборудования для прядильных предприятий особое внимание уделяется вопросам усовершенствования без ущерба для его показателей.

Научные исследования по улучшению качественных показателей текстильной продукции в мире, расширению ассортимента крученой пряжи, снижению негативного воздействия химических волокон на здоровье человека, использованию нано технологий в текстиле, созданию умных текстильных изделий, изучению влияния свойств волокна и пряжи на свойства ткани, совершенствованию конструкции оборудования текстильного производства, ведутся исследования. В этом направлении, среди прочего, проводятся исследования по повышению эффективности прядильных машин, выбору оптимальных параметров регулировки рабочих органов, созданию новых способов прядения, получению пряжи с одинаковыми свойствами из смеси различных волокон, изучению действия нитей. На качество ткани считаются приоритетом. В то же время актуальными задачами считаются с помощью различных компьютерных программ изучение места одинарных нитей в составе пряжи, влияние волокна и одиночных нитей на качество пряжи.

